Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Quliyev Ulug'bek Mirzayevich, Mamataliyev G'ayrat Chori o'g'li, Bazarov Shodi Abdirahmonovich	
Oziq-ovqat mahsulotlari brend qiymatini oshirishda marketing strategiyalari.....	1123
Xodjiyev Ibroxim Ikramovich	
Актуальные вопросы укрепления доверия населения к банковской системы Республики Узбекистан	1129
Рузиева Нилуфар Тулкин кизи	



Hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirish uchun mintaqaviy siyosat vositalarining xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	1135
Normurodov Alibek Anvar o'g'li	
Mintaqa korxonalarining rivojlanish potensialini shakllantirishda innovatsion marketingning o'rni va mohiyati.....	1142
Axmedov Alim Babaniyazovich	
O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini tokomillashtirish yo'llari.....	1146
Samandarova Dिल्фуза Mansurovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari: mavjud muammolar va yechimlar.....	1153
Fatilloev Farrux Farhod o'g'li	
O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'iga ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlarning iqtisodiy-statistik tahlili.....	1158
Zakirova Umida Maxamadaminovna	
Banklar tomonidan muammoli kreditlar bilan ishlash samaradorligini oshirish yo'llari ("Agrobank" ATB misolida).....	1167
Yusufov Xurshidjon Sharifovich	
Namangan viloyatida don va don mahsulotlari narxini shakllanishining bozor tadqiqoti.....	1172
Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi va xorijda tog' turizmini rivojlantirish omillarini qiyosiy baholash.....	1177
Mavlanov G'olibjon Muhammad o'g'li	
Improving The Effective Use Of Local Taxes And Levies In Tashkent City.....	1182
Shahzad Zokhidov	
Совершенствование методологии механизмов налогообложения ресурсного налога.....	1186
Мухиддинов Талат Шайдулло угли	
Tadbirkorlik faoliyatida investitsiya muhitining xususiyatlari va chet el kapitalining jozibadorligi.....	1189
I. M. Kamoliddinov, To'khtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Kichik biznes tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etish xususiyatlari.....	1194
Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li	
Inson resurslarini boshqarish tizimini tokomillashtirish orqali iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish.....	1199
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li	
Organik qishloq xo'jaligiga o'tishning rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy va ekologik afzalliklari.....	1203
Ahrorov Farhod Baxriddinovich	
Korxonalarda uzumchilik mahsulotlarni ishlab chiqarishda strategik boshqarishda mintaqaviy klaster modellashtirishdan foydalanish.....	1208
Muhitdinov Asror Akobirovich	
Qashqadaryo viloyatida ishsizlik darajasini istiqbolda kamaytirish ssenariylari.....	1213
Djumayev Zayniddin Axmedovich, Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li	
Kam ta'minlangan oilalarda tadbirkorlik faoliyatini o'ziga xos yo'llari va imkoniyatlari.....	1219
Tursunov Nozimjon Nosirovich	
Korxonalar samaradorligini oshirishda soliqlar va soliq siyosatining ahamiyati.....	1223
Saida Yuldasheva	
The Contribution of Ecotourism in Developing Gdp in Uzbekistan.....	1227
Saidova Dildora Nurmatovna, Umarov Husanboy Bahromjon o'g'li, Xolyigitov Umidjon Alijon o'g'li	
Mehmonxonalar faoliyatini moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirishda turizmning o'rni.....	1231
Abduraxmanova Ziyoda Abdullayevna	
O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etilishi va undagi asosiy o'zgarishlar tahlili.....	1237
Normurzayev Umid Xolmurzayevich	
Tog' va tog'oldi hududlari qishloq xo'jaligini ixtisoslashtirish va rivojlantirish yo'llari.....	1245
Abdulxayeva Gulshan Maxmudovna	
Правовые основы маркетинговых стратегий акционерных обществ в Республике Узбекистан.....	1250
Эркинов Шахзод Баходир ўғли	
O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarining yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish hisobiga budget daromadlari barqarorligini baholash amaliyoti.....	1254
Ikramov Ravshan Amanbayevich	
Uzum-vinochilik mahsulotlari bozorida eksportni diversifikatsiyalash strategiyalaridan foydalanish.....	1261
Azadova Bonuposhsha Alisher qizi	
Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning nazariy asoslari.....	1266
Sadikov Iskandar Gayratovich	
Milliy soliq to'lovchilar faoliyatini rag'batlantirishda ikki yoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish mexanizmlarini tokomillashtirish masalalari.....	1272
Rajapov Shuxrat Zaripbaevich	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari.....	1277
Qorriyeva Shahnaza Safarboyevna	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari.....	1281
Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna	



Xizmat ko'rsatish sohasini raqamlashtirishning ahamiyati va zaruriyati	1284
Mirzayev Qulmamat Janzakovich, Djurakulov Shoxrux Baxtiyorovich	
Yog'-moy korxonalarining xom ashyo ta'minotini amalga oshirishning zamonaviy konsepsiyalari	1289
Jo'rayeva Nodiraxon Qurbonovna	
O'zbekistonda mulkdorlar sinfini shakllantirishning ilmiy-metodologik yo'nalishlari va rivojlanish bosqichlari.....	1294
Berkinov Bazarbay Berkinovich	
O'zbekiston sug'urta bozorini rivojlanishi istiqbollari ta'minlash omillari.....	1300
X. I. Boyev	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar innovatsion faoliyatini boshqarishda jahon tajribasi.....	1305
Saipova Dilnoza Shuxratovna	
Mintaqa sanoatini innovatsion rivojlantirish indikatorlarining iyerarxiyasi.....	1310
Muhammadiyev Sardorbek Shokir o'g'li	
Korxonalarda moliyaviy qarorlarni qabul qilishning muhimligi.....	1315
Allayarov Shamsiddin Amanullaevich, Yoqubov Madaminbek Abdurahim o'g'li	
Mehmonxonalarda boshqaruv tizimi va uni takomillashtirish.....	1320
Qalandarova Gulnoza, Botirova Zumrad	
O'zbekistonda maktab va maktabgacha talim tizimini moliyashtirishni takomillashtirish.....	1324
Boltaboyev Murodbek Aybekovich	
Mehnat resurslarini samarali boshqarishda jahon tajribasi.....	1329
Xonnazarova Dilobar Qutbiddin qizi, Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich	
Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash.....	1333
Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich	
O'zbekiston Respublikasida "Iqtisodiy erkinlik indeksi"ning davlat aralashuvi darajasi yo'nalishida yuqori natija qayd eta olish imkoniyatlari va buning oqibatlari	1337
Qoraboyev Bobur Umarovich, Abdiyev Mansur Musurmonovich, Ravshanov Shaxriyor Shuhratovich, Mamataliyev G'ayrat Chori o'g'li	
Improving the Participation of Joint-Stock Companies in the Capital Market.....	1343
Muminov Shohjahon Suyun ugli	
Mamlakatimizda atrof-muhitni himoyalashga ixtisoslashgan ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish shakllari.....	1347
Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li	
Mahalliy farmatsevtika mahsulotlari bozori va iste'molchilar xulq-atvorini o'rganish xususiyatlari.....	1353
Bobojonov Baxrombek Ruzimovich	
Soliq va buxgalteriya hisobini yuritishda asosiy vositalar hisobining dolzarb masalalari	1359
Arifxanova Xabiba Shuxratovna	
Institutsional islohotlar sharoitida mamlakatni moliyaviy-iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalari.....	1365
Mamatov Axmetjon Atajanovich, Ermo'minov Iskandar Ziyodillayevich	
Mehmonxonalarda xizmat sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning istiqbollari.....	1370
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
Resurslar yetishmaydigan hududning investitsion jozibadorligini shakllantirishning uslubiy asoslari.....	1375
Akbarov Bekmurod Miryakubovich	
Jahon moliyaviy arxitekturasini va xalqaro moliya tizimini isloh qilish yo'nalishlari.....	1381
Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna, Karimov G'ayratjon Toxir o'g'li	
"O'zneftgaz" AK tizimidagi korxonalarda joriy aktivlarning sof foyda hajmi va uning o'zgarishiga ta'sirini perespektiv tahlili	1386
Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	




JAHON MOLIYAVIY ARXITEKTURASI VA XALQARO MOLIYA TIZIMINI ISLOH QILISH YO'NALISHLARI



Nasirxodjayeva Dilafroz Sabitxanovna

I.f.d., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
professori



Karimov G'ayratjon Toxir o'g'li

O'zbekiston Respublikasi
Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Maqolada, jahon moliyaviy arxitekturasini va xalqaro moliya tizimini isloh qilish yo'nalishlari bilan bog'liq jarayonlar tadqiq etilgan. Xalqaro moliya tizimini isloh qilish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va uning rivojlanish xususiyatlari tizimlashtirilgan. Xalqaro moliya tizimini isloh qilish jarayonidagi mavjud muammolar aniqlangan. O'zbekistonning jahon moliyaviy arxitekturasini va xalqaro moliya tizimidagi ishtirokini kengaytirishga doir ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: jahon moliyaviy arxitekturasini, xalqaro moliya tizimini, moliyaviy globallashuv, jahon moliya bozori, jahon valyuta tizimi, valyuta tizimi, global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz, moliyaviy integratsiya.

Abstract: The article examines the processes associated with the directions of reform of the global financial architecture and the international financial system. The socio-economic processes arising in the process of reforming the international financial system and the features of its development are systematized. Current problems in the process of reforming the international financial system are identified. A scientific proposal and practical recommendations have been formulated to expand the participation of Uzbekistan in the global financial architecture and the international financial system.

Key words: world financial architecture, international financial system, financial globalization, world financial market, world currency system, currency system, global financial and economic crisis, financial integration.

Аннотация: В статье исследуются процессы, связанные с направлениями реформирования мировой финансовой архитектуры и международной финансовой системы. Систематизированы социально-экономические процессы, возникающие в процессе реформирования международной финансовой системы, и особенности ее развития. Выявлены текущие проблемы в процессе реформирования международной финансовой системы. Сформулированы научное предложение и практические рекомендации по расширению участия Узбекистана в мировой финансовой архитектуре и международной финансовой системе.

Ключевые слова: мировая финансовая архитектура, международная финансовая система, финансовая глобализация, мировой финансовый рынок, мировая валютная система, валютная система, глобальный финансово-экономический кризис, финансовая интеграция.



KIRISH

Globallashuv jarayonining hozirgi bosqichida jahon moliya tizimidagi institutsional tuzilmalar faoliyatini sifat va miqdor jihatdan o'zgarishi moliyaviy munosabatlarning jadallashuvi bilan tavsiflanadi. Hozirgi vaqtda zamonaviy jahon iqtisodiyotidagi islohotlarni talab etadigan institutsional jarayonlar global moliyaviy arxitekturaning keng miqyosdagi rivojlanishini nazarda tutadi. O'z navbatida xalqaro moliya munosabatlari orqali barcha mamlakatlarda globallashuv bilan bog'liq tizimli jarayonlar sodir bo'ladi. Mazkur jarayonlarning tizimli rivojlanish xususiyatlari jahon moliyaviy arxitekturasini vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu jarayonda tegishli munosabatlar uyg'unligini ta'minlash xalqaro moliya institutlarining faoliyatini taqozo etadi. Bu kabi qator holatlar O'zbekistonning jahon moliyaviy arxitekturasini va xalqaro moliya tizimiga integratsiyalashuvini ta'minlashda moliya institutlarining qarzlar, kreditlari va grantlarini jalb qilish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, moliyalashtirish manbalarini o'rganish hamda kreditlar, qarzlar va grantlarni jalb qilish bo'yicha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek, xorijdagi diplomatik vakolatxonalar faoliyat samaradorligi va natijadorligini muntazam ravishda oshirish ^[1] bilan bog'liq jarayonlarni muhim ahamiyat kasb etishi va tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslash uchun xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Jahon moliyaviy arxitekturasini va xalqaro moliya tizimini isloh qilishda moliyaviy globallashuvning o'rni, uning rivojlanish xususiyatlari bilan bog'liq tadqiqotlar xorij iqtisodchi olimlaridan Dj. Van Xorn tomonidan amalga oshirilgan ^[2]. R.Glik, M.Xatchinsonlarning tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda moliyaviy globallashuv bilan bog'liq turli to'siqlarni olib tashlash, kapitalning xalqaro harakatida turli oligopoliyalar va assimetriyalarning paydo bo'lish sabablari, ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini o'rganilgan ^[3]. Ye.A.Zvonova jahon moliyaviy arxitekturasini tadqiq etish jarayonida moliya institutlarining shakllanishi va faoliyat yuritishi, turli xil iqtisodiy va moliyaviy inqirozlarning jahon moliyaviy arxitekturasiga ta'siri bilan bog'liq jarayonlarni o'rganib, milliy moliya bozorining o'zgaruvchan global moliyaviy arxitektura integratsiyalashuvining maqbul shakllariga nisbatan mavjud stereotiplarga munosabatni o'zgartirish zarurligini qayd etadi ^[4]. N.E.Andronova zamonaviy dunyoda geosiyosiy va geoiqtisodiy vaziyatning o'zgarib borayotganligini e'tirof etgan holda, mamlakatning bank-moliya tizimini vektori va ustuvor yo'nalishlarini o'zgartirish, shuningdek, iqtisodiy xavflarning yomonlashuvi sharoitida mamlakat kapitalining transchegaraviy harakati modelini o'zgartirish zarurligi qayd etiladi ^[5]. M.Yu. Golovin, A.A.Abalkina tadqiqotlarida mamlakat moliya tizimining barqarorligini yo'qotishi, mamlakatda iqtisodiy o'sish bilan bog'liq eksternal omillar ta'siri ortishi natijasida tashqi ta'sirlarga bog'liqlik darajasini ortib borishi qayd etiladi. Ushbu muammoli jarayonni oldini olishda moliyaviy globallashuv va milliy moliyaviy tizimlarni diversifikatsiya qilish maqsadida mintaqaviy valyuta hamkorligini rivojlantirish tavsiya etiladi ^[6]. V.I.Karpunin, G.G.Cheloyans tadqiqotlarida mamlakatning moliyaviy globallashuv tahdidlarini zararsizlantirish imkoniyatlarini amalga oshirishda milliy bozorlarni himoya qilishning ichki manbalarini izlab topish, mamlakatning jahon bozoriga qaramligini pasaytirish yo'llari asoslab berilgan ^[7].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan N.X.Jumayev, X.M.Akbarov tadqiqotlarida xalqaro moliya arxitekturasining asosi hisoblangan jahon valyuta tizimining rivojlanish bosqichlarini tashkiliy-iqtisodiy shart-sharoitlari, shuningdek, jahon valyuta tizimida kuzatilayotgan yangi innovatsion yo'nalishlar aniqlangan bo'lib, ularni takomillashtirishda doir tegishli taklif va tavsiyalar berilgan ^[8]. H.Abulqosimov global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida mamlakatning xalqaro moliya tizimidagi ishtirokini takomillashtirishda faol investitsiya siyosatini amalga oshirish, ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirish orqali erishish mumkin deb hisoblaydi ^[9]. B.O.Tursunov tadqiqotlarida rivojlangan mamlakatlarning xalqaro raqobatbardoshlikdagi ustuvorligi, mazkur mamlakatning valyuta tizimini mustahkamlash asos yaratayotganligi qayd etilib, ushbu mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy hamkorlikni takomillashtirish orqali mamlakatning xalqaro moliya tizimidagi ishtirokini kengaytirish mumkin deb hisoblaydi ^[10]. R.Xojimatov jahon moliya bozori va uning rivojlanish xususiyatlarini tadqiq etish orqali, milliy moliya tizimlarini tartibga solishning mavjud tizimini isloh qilish ko'p qutbli dunyo haqiqatini tan olish va mamlakatlarning yangi global integratsiya birlashmalarining iqtisodiy ta'sirining kuchayishi degan xulosaga keladi ^[11].

Yuqoridagi tadqiqotlarning muayyan asosi jahon moliyaviy arxitekturasini va xalqaro moliya tizimini isloh qilish yo'nalishlarini fundamental jihatlarini o'rganishga yo'naltirilganligi bilan xarakterlanadi.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy abstraksiya, tizimli tahlil, induksiya va deduksiya, statistik tahlil kabi tadqiqot metodlaridan foydalanilgan.



TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy moliya bozorlarining integratsiyalashuvi va ularning faoliyati uchun umumiy shart-sharoitlarning bosqichma-bosqich yaratilishi jahon moliyaviy arxitekturasini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatdi. O'z o'rnida moliyaviy globallashuv milliy moliya bozorlarining izolyatsiyasini yo'q qilib, yagona global moliya tizimining turli segmentlari o'rtasida murakkab munosabatlarni vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Natijada, 1990–2022-yillarda jahon yalpi ichki mahsuloti qariyb 5 barobarga, tovar va xizmatlar eksporti 2 barobarga, kapital eksporti esa teng barobarga ortdi (1-rasm).



1-rasm: 1990–2022-yillarda jahon yalpi ichki mahsuloti, tovar va xizmatlar, kapital eksporti dinamikasi (mlrd. AQSH dollari)^[13]


Mazkur munosabatlarning dastlabki asoslari XX asrning 50-60-yillarida, yevrovalyuta bozorining shakllangan davridan boshlan o'z xususiyatlarini namoyon eta boshladi. XX asrning 70–80-yillarida xalqaro kapital harakatining o'sishi yevrovalyuta bozorining integratsiyasi ta'sirida ro'y bergan bo'lsa, yevrovalyutaning milliy kapital bozorlaridagi o'zni 90 yillardan boshlab rivojlanish jarayonlarini qayd etdi. Xususan, 90 yillarda yevrovalyuta bozorining yillik o'rtacha o'sish sur'ati 2 trillion yevroni tashkil etdi. Bu o'z navbatida rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan yo'naltirilayotgan yevroobligatsiyalar va bank kreditlari oqimini intensiv harakatini ta'minlanishiga samarali ta'sir ko'rsatdi.

Yevropa davlatlarida qimmatli qog'ozlar va ssuda kapitali bozorlarini mahalliy bozorlardan global bozorga aylanishi, xalqaro moliya bozorlari tufayli vaqtincha bo'sh resurslarni mamlakatlar va jahon iqtisodiyoti tarmoqlari o'rtasidagi samarali taqsimoti uchun asos yaratdi. Milliy pul va kapital bozorlari o'ziga xos xususiyatlar, kapital bozorlarining birlashganligini ko'rsatuvchi dinamik siljishlarga qaramasdan jahon moliya tizimining globallashuv jarayonini hali ham to'liq rivojlanish ko'rsatkichlariga erishmagan deb hisoblashimiz mumkin. Fikrimizcha, bu jarayonga eng katta ta'sir ko'rsatuvchi omil, bu xalqaro kapital harakatining valyuta tarkibi hisoblanib, ushbu xulosaning muayan ifodasini xalqaro savdoning valyuta tarkibi oqali ko'rish mumkin. 2023-yildagi xalqaro savdoning valyuta tarkibi bilan bog'liq nomuvofiqlik ham mazkur jarayonni izohlash uchun xizmat qiladi (1-rasm).

Hozirgi davrda xalqaro savdo tarkibida yetakchi valyuta sifatida AQSH dollari asosiy o'rin egallaydi. Xususan, 2023-yildagi xalqaro savdoning valyuta tarkibi AQSH dollarining ulushi umumiy valyutalarga nisbatan 63 foizni qayd etganligi fikrimizni asoslaydi (2-rasm).

Ikkinchi valyuta sifatida yevroning ulushi 20,2 foizni qayd etgan bo'lsa, Yapon yenasi 4,9, Angliya funt sterlingi 4,5, Xitoy yuan'i 1,2 foiz ulushga ega bo'lgan.

2008-yilda sodir bo'lgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sirida xalqaro kapital oqimidagi institutsional to'siqlarning sezilarli darajada ortishi, moliyaviy aktivlarni xalqaro bozorlarga transformatsiyasini ta'minlashda valyuta riski bilan bog'liq munosabatlarni oldini olishga yo'naltirilgan jarayon ta'sirida yevroning hajmi ortib borishiga sabab bo'ldi. Axborot inqilobi va yangi moliyaviy texnologiyalar yevroning xalqaro doiradagi keng harakatini ta'sinlashga asos yaratdi. Yetakchi bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda investorlar aktivlarini qimmatli qog'ozlar ko'rinishida saqlanishi, xalqaro darajadagi valyutalarning diversifikatsiya qilish jarayonini muqobil variantlarini shakllantirishga olib keldi.



2-rasm: 2023-yilda xalqaro savdoning valyuta tarkibi (foizda)^[12]

Jahon moliyaviy arxitekturasini va xalqaro moliya tizimini isloh qilish yo'nalishlarida asosiy muammo yetakchi valyutaga aylangan AQSH dollari va uning erkin bozor kursini yuqori o'sish sur'atlarini saqlanib qolishi orqali namoyon bo'lmoqda. Fikrimizcha, bunga asosiy sabablardan biri AQSH dollarini asosiy zaxira valyutasi sifatida tan olinganligi bilan izohlash mumkin.

2008–2012-yillarda davom etgan moliyaviy inqiroz va unga qarshi choralar dasturi doirasida jahon moliya bozorida xalqaro moliya institutlarining nazorat funksiyasi ortdi. Xalqaro moliyaviy infratuzilmaviy yondashuv asosida turli xorijiy mamlakatlarda xalqaro moliya institutlarining banklar, offshor zonalar, xedj-fondlar, reyting agentliklari faoliyati ustidan nazoratini kuchaytirildi.

Jahon moliyaviy inqirozi sharoitida moliyaviy tizimlarini jumladan, valyuta bozorini tartibga solish mexanizmlarini tubdan o'zgartirish bo'yicha takliflar G20 sammitlarida markaziy o'rinni egallashi, a'zo mamlakatlarda birjadan tashqari derivativlarni aylanishini oldini olishda markazlashgan tizimni vujudga keltirishga sabab bo'ldi. Birjadan tashqari derivativlarni aylanishini oldini olinishi, birja bozorini bosqichma-bosqich xarakterga ega bo'lgan investitsion faolligini oshirdi. Natijada, yirik moliyaviy tashkilotlarning majburiyatlarini bajarmaslik bilan bog'liq risklarini sezilarli darajada kamaytiradi. Natijada, global moliyaviy bozor ishtirokchilarining xarajatlari kamaydi.

XVF va Yevropa Ittifoqi hamkorligida mintaqaviy moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish tamoyillarining ishlab chiqilishi Yevropa mamlakatlari o'rtasida valyuta obligatsiyalari bozorlarini rivojlantirish va chuqurlashtirishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha kelishilgan harakatlar rejasini muvofiqlashtirish imkoniyatini berdi. O'z o'rnida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash tizimi jahon moliya tizimini isloh qilish yo'nalishlarini ishlab chiqishning quyidagi natijalari shakllantirish imkoniyatini berdi:

- xalqaro darajada moliyaviy nazorat organlarining nazorati bilan bog'liq tizimli ahamiyatga ega bo'lgan moliya bozorlari va vositalari, shu jumladan hedj-fondlarga, shuningdek ularning boshqaruvchilariga, ularning faoliyati bilan bog'liq yuzaga keladigan xavflarni baholash uchun ma'lumotlarni ro'yxatga olish va oshkor qilishni kengaytirish;
- xalqaro obligatsiyalar bozorida tizimli xatarlarning yuzaga kelishining oldini olish maqsadida ularning makroprudensial jihatlariga alohida e'tibor qaratgan holda tartibga solishni kuchaytirish;
- iqtisodiy sikl fazalarini moliyaviy tartibga solish tizimini yaratishda qulay iqtisodiy sharoitlarga ega bo'lgan kapital talablarini oshirish orqali moliyaviy aktivlarning leveraj mexanizmini cheklash;



- inqirozlarning oldini olish va ularni yengib o'tish bo'yicha xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish, xususan, yirik muassasalar faoliyatini nazorat qilish uchun mavjud tizimning institutsional asoslarini mustahkamlash va boshqalar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jahon moliyaviy boshqaruvining etarli darajada samaradorlikka ega bo'lmaganligi moliyaviy inqirozning asosiy sababi hisoblangan bo'lsada, jahon iqtisodiyotini moliyaviy jihatdan tartibga solishda XVF va Jahon bankining rolini oshiradigan global tartibga solish tizimi barqarorlashtirish imkoniyatini berdi. Ammo, bugungi kunda jahon moliyaviy arxitekturasini va xalqaro moliya tizimini isloh qilish yo'nalishlari bilan bog'liq quyidagi islohotlar zaruriyatini taqozo etadi:

- ko'pgina xorijiy davlatlar tomonidan qimmatli qog'ozlar va tovarlar bozori faoliyatini liberallashtirish va ularni baynalmilallashtirishga qaratilgan qonun hujjatlarining qabul qilish;
- milliy moliya bozorlarining aktivlari sig'imini oshirish orqali ularni universallashtirish, moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishni unifikatsiyalash va standartlashtirish;
- yetakchi xalqaro birjalar faoliyatida moliyaviy aktivlar aylanmasi hajmi va tezligini oshirish, ularning birjadan tashqari elektron analoglarini ishlab chiqish, yangi moliyaviy xizmatlar va vositalarning moliyaviy injiniring jarayonida internet tarmog'i ishtirokini kengaytirish;
- xalqaro kapital birjalari faoliyatida axborot, shu jumladan iqtisodiy va moliyaviy ma'lumotlar almashinuvi vositalarining o'zgarish, kapital bozorlarini bog'laydigan global axborot tarmoqlarining paydo bo'lishini ta'minlash orqali, ma'lumotlarni qayta ishlash, saqlash va ulardan foydalanish xarajatlarini kamaytirish va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.12.2017-y. PQ-3439-son "Xalqaro va xorijiy moliya institutlari bilan hamkorlikning samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. Ван Хорн Дж. Основы управления финансами / Пер. с англ.; под ред. И.И. Елисеевой. – М.: Финансы и статистика, 1996.
3. Glick R., M. Hutchinson. Banking and Currency Crises: How Common Are Twins? in Financial Crises in emerging markets, ed. by Reuven Glick, Ramon Moreno, and Mark M. Spiegel. –NY, 2001.
4. Звонова Е.А. Реформирование мировой финансовой архитектуры и российский финансовый рынок: монография / Е.А. Звонова, М.В. Ершов, А.В. Кузнецов, А.В. Навой, В.Я. Пищик: под ред. Е.А. Звоновой. – М.: РУСАЙНС, 2016. – 430 с.
5. Андропова, Н.Э. "Проблемы реформирования мировой финансовой архитектуры в условиях финансовой глобализации." International Research Journal, no. 5(5), Oct. 2012.
6. Головин М.Ю., Абалкина А.А. Финансовая интеграция стран Азии и Европы // ИАБ ЦПИИМЭПИ РАН. – 2005. – № 2.
7. Карпунин В.И., Челоянц Г.Г. Финансовая глобализация и проблема обеспечения устойчивости национальных финансовых систем/Валютное регулирование и валютный контроль. – 2012. – № 2
8. Jumayev N.X., Akbarov X.M. Jahon valyuta tizimining rivojlanishi bosqichlari va yangi innovatsion yo'nalishlari. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali, 2018 yil, №6, 1-13 bet.
9. Abulqosimov H. Global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davom etayotgan sharoitda O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishi// IQTISOD VA MOLIYA / ЭКОНОМИКА И ФИНАНСЫ 2013, 8. 2-10 б.
10. Omonovich, Tursunov Bekmukhammad. "The Chinese Experience of Increasing the Competitiveness of the National Economy and the Possibilities of Effective use it in the Economy of Uzbekistan." American Journal of Economics and Business Management 5.11 (2022): 325-331.
11. Хожиматов, Р. (2015). Мировой финансовый рынок: теоретические взгляды и общая характеристика. Экономика и инновационные технологии, (3), 105–115. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/8344
12. <https://mavink.com/post/C3E35E92BE77D38530E199D4A04EED9188AM0230A9/currency-composition-of-international-trade-2023>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.